




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

Sattarov I.S., Mominov A.T.

## QON KETISH VA UNI TO'XTATISH USULLARI



**O'QUV - USLUBIY QO'LLANMA**

Toshkent 2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIY AKADEMIYASI  
№1 SON UMUMIY VA BOLALAR XIRURGIYA KAFEDRASI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA  
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

**«TASDIQLAYMAN»**

TTA o'quv ishlari  
bo'yicha prorektori

**Baymurodov Sh.A.**

**2022-yil**



**Sattarov I.S., Mominov A.T.**

**O'quv uslubiy qo'llanma**

**“QON KETISH VA UNI TO‘XTATINSH USULLARI” MAVZUSI BO‘YICHA  
INNOVATSION TA‘LIM TEHNOLOGIYALARINI VA ELEKTRON TA‘LIM  
RESURSLARINI QO‘LLASH**

**(umumiy jarrohlik fanidan dars beruvchi tibbiyot oliygohi o‘qituvchilari uchun)**

## MUNDARIJA

Kirish.....	4
Mavzuga tegishli lug'at.....	4
Darsni o'zlashtirishda o'qituvchining maqsad va vazifalari.....	5
Nazariy qism.....	7
Pedagogik texnologiyalar va o'qitishning interfaol usullari.....	10
Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.....	20
Yakuniy nazorat.....	22
Xulosa va tavsiyalar.....	24
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	25

## KIRISH

"Umumiy jarrohlik" fanidan ushbu o'quv qo'llanma o'qituvchilarga "davolash ishi", "Kasbiy ta'lism (davolash ishi)" mutaxassisliklari bo'yicha ta'lism berayotgan o'qituvchilarga mo'ljallangan bo'lib, talabalarga nazariy va amaliy ko'nikmalarini dars jarayonida qo'llashga qaratilgan.

Barcha ta'lism tehnologiyalari davlat ta'lism standarti talablariga javob beradi. Ular nafaqat amaliy ko'nikmalar texnikasini o'zlashtirishga, balki ularni amalga oshirish jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtaсидagi aloqa masalalarini ham aks ettiradi.

Ushbu mashg'ulotda oqituvchi talabaga qon ketishlarda tibbiyat xodimlarini harakatlari ketma-ketligini, shifoxona qabul bo'limida ishlash qoidalarini, og'ir kasallarga yordam ko'rsatishni, bemorlarga sanitarni-gigienik muolajalarini bajarishni, ularning holatini kuzatishni, parvarishlashni, bemorlar transportirovkasini, tibbiy buyumlar va tibbiy asboblardan qanday foydalanish kerakligini o'rgatadi va bularni barchasini yangi pedagogik tehnologiyalar qo'llash orqali amalga oshiradi.

### Mavzuga tegishli lug'at

**Petechia** – teriga chegaralangan qon quyilishi

**Purpura** – shilliq qavatga chegaralangan qon quyilishi

**Yecchymosis** – teriga yoki shilliq qavatga katta xajmdagi qon quyilishi

**Sugillation i suffusion** – teri osti yog' qavatiga yuza, chegaralangan qon quyilishi

**Vibices** – terida momotaloq qontalash

**Haematoma** – katta xajmdagi, chegaralangan qon to'planishi

**Yepistaxis** – burundan qon ketish.

**Gastrorrhagia** – me'dadan qon ketish

**Yenterorrhagia** – ichakdan qon ketish

**Haemoptoe, haemoptysis** – yo'talganda qon tupurish

**Haematemesis** – qon quisish

**Haematuria** - qon aralash siydik

**Menorrhagia, nypermenorrhoea** – xayz davrida me'yordan ortiq sharillab oqish - sharshara